

## Bayram talabalar talqinida

Yaqinlashib kelayotgan yangi yil bayrami shukuhi Respublikamizning barcha joylaridagi tayyorgarlik ishlari tadbirlarda o'z aksini topmoqda. Bizning institutimizda ham bayramga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, mutlaqo yangi tashabbus, yondashuv asosida, talabalarning xohish va istaklariga ko'ra "Yangi yil bayrami talabalar talqinida" nomli Yangi yil bayram karnavali tashkil etildi. Yangi yil karnavali institut rahbariyati va institut kasaba uyushmasi qo'mitasi homiyligi asosida Yoshlar ittifoqi institut boshlang'ich tashkiloti tomonidan o'tkazildi. Bayram dasturxonini bezatildi. Bayram shukuhi aks etgan barcha kerakli shart-sharoitlar yaratib berildi.

Qiziqarli o'yinlar, viktorinalar o'tkazilib, musiqali chiqishlar namoyish etildi. Ishtirok etgan har bir talaba bayram kayfiyati va hursandchilikni his etdi deya ishonch bilan ayta olamiz. Yangi yil karnovalini o'tkazishda yaqindan yordam bergan institutimiz rektoriga, yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektoriga, institut kasaba uyushmasi qo'mitasi raisiga, institut bosh hisobchisiga, madaniyat saroyi boshlig'iga talabalar va yoshlar nomidan katta minnatdorchilik bildiramiz. Shuningdek, tashkiliy ishlarda faol bo'lgan, ertayu-kech mehnat qilgan institut boshlang'ich tashkiloti jamoasi va bir guruh talabalarga ham katta rahmat aytamiz. Ishtirok etgan talabalarimizni yanada faol bo'lishini so'raymiz. Barchangizga yaqinlashib kelayotgan yangi yil omadli kelsin. Oilangizdan tinchlik-xotirjamlik, baxt-sog'lik aslo ketmasin.



**Yoshlar ittifoqi institut boshlang'ich tashkiloti yetakchisi axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**